

**“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili
(Bolalar ombudsmani) to‘g‘risida”gi (29.02.2024-y., O‘RQ–917-son) Qonun
mazmun-mohiyatini yoritishga qaratilgan**

ANNOTATSIYA

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi.

Qonunga ko‘ra, bola huquqlari bo‘yicha vakil (Bolalar ombudsmani) **mansabdar shaxs** bo‘lib, u davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda mansabdar shaxslar tomonidan **bola huquqlari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan parlament nazoratini amalga oshiradi**.

Vakil o‘z vakolatlarini mustaqil ravishda hamda davlat organlariga va ularning mansabdar shaxslariga tobe bo‘lmagan tarzda amalga oshiradi hamda o‘z faoliyatida **Oliy Majlis palatalariga hisobdordir**.

Bola huquqlari bo‘yicha vakil Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan **5 yil muddatga saylanadi**.

Qonun bilan, bola huquqlari bo‘yicha vakilning asosiy vazifalari, huquqlari va majburiyatlari belgilab qo‘yildi, jumladan:

✓ mansabdar shaxslarga bola huquqlari to‘g‘risidagi qonunchilikning buzilishiga yo‘l qo‘yilmasligi haqida **ogohlantirishlar yuborish**;

✓ davlat organlarining va boshqa tashkilotlarning rahbarlariga bola huquqlari to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishlari, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish haqida ko‘rib chiqilishi **majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritish**;

✓ harakatlari yoki harakatsizligida bola huquqlari buzilganligi aniqlangan shaxslarni javobgarlikka tortish to‘g‘risida tegishli organlarga **iltimosnomalar kiritish huquqiga ega**.

Vakil har yili, **hisobot yilidan keyingi yilning 15-fevralidan kechiktirmay** Oliy Majlis palatalariga bola huquqlari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilish holati haqida ma’ruza taqdim etadi.

Vakil bolaga nisbatan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kansituvchi muomala hamda jazo turlarini qo’llashning oldini olish bo‘yicha choralar ko‘radi.

Bola huquqlari bo‘yicha vakil o‘zining **Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi vakilini tayinlaydi**.

Asos: O‘zbekiston Respublikasining
O‘RQ–917-son Qonuni, 29.02.2024-y.